# “Uzbekistan Airways” aviakompaniyasiga HKK lavozimiga ishga qabul qilish e’lon qilinadi

**2025 21 Yanvar**

Nomzodlarga qo‘yiladigan talablar:

1. A320/321 HKga amaldagi ruxsatnoma;

2. Amaldagi FA uchuvchisi guvohnomasi;

3. Amaldagi tibbiyot sertifikati

4. ICAO shkalasi bo‘yicha 4 va undan yuqori darajada ingliz tilini bilish (amal qilish muddati 6 oydan kam bo‘lmagan);

5. Ariza berish paytida ushbu lavozimgategishli HK turida, parvozishidagi 9 (to‘qqiz)oydan ortiq bo‘lmagan tanaffus;

6. Fuqaro aviatsiyasi yokiharbiy aviatsiya uchuvchisining tamomlangan to‘liq aviatsiya ta’limi;

7. A320/321 turidagi HKda parvoz vaqti kamida 1000 soat;

8. Havo kemasi ekipaji tarkibida ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan darajada davlat (O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun), rus va ingliz tillarini bilish;

9. Xorijiy fuqarolar uchun parvoz tajribasi kamida 5 (besh) yil;

10. Vakolatli organ tomonidanguvohnomaning qonuniyligi to‘g‘risida ma’lumotnoma;

11. 55 yoshgacha.

Nomzodlar quyidagi hujjatlarni elektron formatda (PDF) taqdim etishlari kerak:

− Parvoz uchun ishga joylashishga nomzod uchunrasmiylashtirilgan taqdimnoma (ilova qilingan);

− TUEKning parvozgayaroqliligi to‘g‘risidagi xulosasi;

− FA uchuvchisi guvohnomasi;

− Ta’lim, parvoz soati, o‘zlashtirilgan havo kemalar turlari va boshqalar to‘g‘risidagi hujjatlar;

− Asbob-uskunalar (Instrument Rating) bo‘yicha parvozlarga ruxsatni tasdiqlovchi hujjat;

− Parvoz tajribasini tasdiqlovchimehnat daftarchasidan ko‘chirma;

− ICAO tilni baholash shkalasi bo‘yicha 4 darajadan kam bo‘lmagan ingliz tilini bilish darajasiga muvofiqlik sertifikati;

− (O‘zR harbiy xizmatga majbur fuqarolari uchun) harbiy xizmatga yaroqlilik belgisi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining harbiy guvohnomasi.

Hujjatlar PDF formatda pilot.career@uzairways.com elektron pochta manziliga yuborilsin.

Tanlov Toshkent shahrida o‘tkaziladi.

Tanlov bosqichlari:

Suhbat
ICAO shkalasi bo‘yicha ingliztili darajasinitasdiqlovchi hujjat
Trenajyorda tekshirish

Shartnoma muddati 12oy; 36oy.

Tanlov ishtirokchilariga “Uzbekistan airways” AJ qatnovlarida tanlov o‘tkaziladiganjoyga vaorqaga aviachiptalar beriladi;

To‘lov: 70 soat uchun 10.000 AQSh dollaridan, 90 soat uchun esa 12.000 AQSh dollarigacha

Ijtimoiy paket (tibbiy sug‘urta, xodim va oila a’zolari uchun aviakompaniyamizning har qanday muntazam yo‘nalishi bo‘yicha xizmat chiptalari, turar joy to‘lovi - 6.000.000 so‘m) ko‘zda tutilgan.

45 ish kunigacha mehnatta’tili;

Hujjatlar uchun ariza vataqdimnoma to‘ldirilishi zarur (qo‘shimchada).